

AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZI TARAQQIYOTI RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDA

Eshnazarov Nurillo Normamatovich

Namangan viloyati, Mingbuloq tumani, Axborot-kutubxona markazi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamlashtirish xizmati xizmat raxbari

Maqolada Axborot-kutubxona markazlarida raqamli texnologiyalarning o'ri, zamonaviy kutubxonada innovatsion amaliyotlar, Axborot-kutubxona markazlari taraqqiyoti raqamli texnologiyalarga uzviy bog'liqligi foydalanuvchilarga Axborot-kutubxona resurslarini zamonaviy kompyuter va texnik vositalar, telekommunikatsion texnologiyalar orqali sifatli, aniq, kam vaqt ichida tezkor va qulay tarzda yetkazib berish, ma'lumotlar bazalari uchun joyni tejamkorligi hamda axborot-kutubxona markazlari nufuzni yanada oshirish yoritilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli texnologiyalar, elektron kutubxona, innovatsion amaliyotlar, digest

INFORMATION AND LIBRARY CENTER DEVELOPMENT IN DIGITAL TECHNOLOGIES

Eshnazarov Nurillo Normamatovich,

Namangan region, Mingbulak district, Information and library center Information and communication technologies and digitization service head

The article discusses the role of digital technologies in information and library centers, innovative practices in modern libraries, the development of information and library centers are inextricably linked to digital technologies. Convenient delivery, saving space for databases and further enhancing the prestige of information and library centers.

Keywords: Digital technologies, electronic library, innovative practices, digest Bugungi kunda raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalari taraqqiyotga erishishning muhim shartlaridan biridir. Raqamli texnologiyalar nafaqat davlat va jamiyat boshqaruvini takomillashtiradi va ijtimoiy sohada odamlarga katta qulayliklar yaratadi. Bundan tashqari raqamli texnologiyalar ijobiy iqtisodiy

o'sishiga zamin yaratadi: Axborot-kutubxona markazlarida xizmatlar sifatini oshiradi, va ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi.

Raqamli texnologiyalar Axborot-kutubxona markazlarini boshqarish tizimini yangi bosqichga ko'taradi: nafaqat vaqt va mablag'larni keskin oz sarflaydi, shu bilan birga keng aholini jalb etishga imkon yaratadi. So'nggi yillarda raqamlashtirilgan kutubxonalar tizimi ommalashmoqda - o'ta zamonaviy, yangi qiyofaga ega Axborot-kutubxona markazlari bunga misol bo'la oladi. Agarda biz ham Axborot-kutubxona markazlarini zamonaviy tendensiyalarga mos rivojlantirmoqchi bo'lsak, aholi va o'zimiz ya'ni, Axborot-kutubxona mutaxassislari uchun qulay shart-sharoit yaratmoqchi bo'lsak, mazkur masala biz uchun dolzarb ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda kutubxonalar klassik uslublardan ommaviy axborot markazi modeliga o'tmoqda. Yangi vazifalar yangi infratuzilmani va kitobxonlar bilan muloqot qilish uchun boshqa interfeysni talab qilmoqda. Bunda xizmatlarni tashkil etish masalalarining salmoqli qismini zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish orqali hal qilish mumkin.

"To'liq matnli elektron kutubxona" nomi ostida birlashtirilishi mumkin bo'lgan yechimlar axborotdan foydalanishni, shu jumladan masofaviy kitobxonlar uchun ham foydalanishni soddalashtirish, kutubxona fondlari xavfsizligini ta'minlash uchun mo'ljallangan.

Shu o'rinda to'liq matnli elektron kutubxonani yaratish kompleks yondashuvni talab qiladi. Amalga oshiriladigan yechim hech bo'lmaganda quyidagi vazifalarni hal qilishni ta'minlash:

- bosma nashrlarni raqamlashtirish;
- elektron resurslarni tan olish;
- elektron resurslar atributi;
- axborotni saqlashni tashkil etish;
- ma'lumotlardan qulay foydalanishni ta'minlash;
- elektron kutubxonaning axborot xavfsizligi.

Elektron kutubxona - murakkab Axborot tizimi elektron shaklda taqdim etilgan har xil turdagi hujjatlarni to'plash va saqlash, bu tizimga resursni bir marta kiritish bilan, turli xil axborot ehtiyojlarini qondirish uchun ko'p qirrali qayta ishlash va axborotdan ko'p foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi, tezkor taqsimlangan ko'p qirrali funksiyalaridan biri foydalanuvchining yagona interfeys orqali kirishi.

Elektron kutubxonani yaratishdan maqsad kitobxonlarga xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish va uning fondlarida saqlanayotgan madaniy merosni asrab-avaylash yo'llarini kengaytirish, jismoniy nusxalarning eskirishini oldini olish, kutubxona fondlarining potentsial manbalarini kengaytirishdir.

Axborot-kutubxona markazlari taraqqiyoti raqamli texnologiyalarga uzviy bog'liqligi foydalanuvchilarga Axborot-kutubxona resurslarini zamonaviy kompyuter va texnik vositalar, telekommunikatsion texnologiyalar orqali sifatli, aniq, kam vaqt ichida tezkor va qulay tarzda yetkazib berish, ma'lumotlar bazalari uchun joyni tejamkorligi hamda axborot-kutubxona markazlari nufuzni yanada oshirishdir.

Bu o'zgarishlarning barchasi axborotga bo'lgan ehtiyojni ta'minlashda, to'plash va undan foydalanishni tashkil etishda o'z aksini topib, kutubxonalar vazifalarini bosqichma-bosqich murakkablashtirdi. Bugun biz elektron muhitning faol ta'siri ostida bo'lgan kutubxona fondlarini rivojlantirishning navbatdagi bosqichidan o'tmoqdamiz.

Raqamli texnologiyalar rivojining muhim ustuvor yo'nalishi kutubxonalarning asosiy vazifasini bajarishning barcha mumkin bo'lgan yo'llari - bu vazifani bajarish uchun yangi axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda kitobxonlarni Axborot-kutubxona markazi fondlarida saqlanadigan eng to'liq ma'lumotlar bilan operativ ta'minlash.

Axborot-kutubxona markazlarida raqamli texnologiyalar ommalashgani sari adabiyotlarni ifodalanishi turli yo'llar bilan, ya'ni, grafikalar, fotosuratlar, videolar, animatsiya va ovozdan foydalaniladi. Boshqacha qilib aytganda, inson ko'rish va eshitish yordamida idrok eta oladigan hamma narsadan foydalaniladi.

Raqamlashtirilgan kutubxona loyihalarining asosiy maqsadi:

1. Foydalanuvchilarga tezkor va sifatli xizmat ko'rsatish;
2. Qidiruv tizimining ish faoliyatini kuchaytirish hamda kam vaqt sarflash;
3. Joyning tejamkorligi, administrator xizmatining osonlashuvi;
4. Axborot olish madaniyatini shakllantirish, foydalanuvchi mustaqil ravishda tizimdan foydalana olishi;
5. Ma'naviyatimizga zid bo'lgan axborot xurujlaridan hamda "ommaviy madaniyat" ta'siridan saqlash;
6. Ko'p mablag' sarflanishini oldini olish;
7. O'zbekistonda yaxlit va yagona elektron kutubxona tashkil.

Axborot-kutubxona markazlarini to'laqonli faoliyat yuritishlari uchun kutubxonadagi quyidagi asosiy jarayonlar avtomatlashtirilishi zarur:

- ✓ Kutubxonaga qabul qilinayotgan yangi hujjatlarga avtomatik tarzda (texnik va ilmiy) ishlov berish;
- ✓ Qabul qilinayotgan hujjatlarning ma'lumotlar bazasini yaratish;
- ✓ Turli mavzudagi adabiyotlar arxivini yaratish va undan nusxa olish bo'yicha operatsiyalarni bajarish;
- ✓ Kitobxonlar so'roviga mos holda bibliografik tasvirning barcha elementlari bo'yicha qidiruvni bajarish;
- ✓ Kutubxonaning axborot va davriy nashrlarining ma'lumotlar bazalari orqali xizmat ko'rsatish;
- ✓ Jurnal maqolalarining bibliografik tavsiflari massivini yuritish;
- ✓ Elektron ma'lumotnomalar yaratish;
- ✓ Berilgan adabiyotlarni nazorat qilish;
- ✓ Kitobxonlar va ularning formulyarlarini hisobga olish;
- ✓ Berilgan adabiyotlarni kitobxonning formulyariga avtomatik tarzda yozib qo'yish;
- ✓ Kitoblarni o'z vaqtida qaytarib berilishini nazorat qilish;
- ✓ Kutubxona elektron katalogini shakllantirish, yuritish.



Axborot-kutubxona markazi taraqqiyotida kutubxona mutahassislari Novatorlar- yangi hayotni amalga oshiradigan va har qanday faoliyatda ilg'or g'oyalar, texnikalar va shunga o'xshashlarni amalga oshiradigan kishi bo'lishlari kerak.

Zamonaviy kutubxonada innovatsion amaliyotlar

Aystopper-(eye-stopper) - e'tiborni jalb qilish uchun ko'zni to'xtatuvchi kommunikativ reklama va PR elementi.



Benefits - qiziqarli shaxs (o'quvchi, yozuvchi, kutubxonachi) sharafiga spektakl

BIBLIOFRESH- (inglizcha fresh - "fresh") - yangi mahsulotlarning bibliografik sharhi.

BIBLIOMIX - (inglizcha mix - "mix") - ma'lum bir mavzu bo'yicha bibliografik sharh, unda har xil

turdagi kutubxona hujjatlari: kitoblar, davriy nashrlar, video, kino, audio, foto hujjatlar, elektron nashrlar, plakatlar, axborot resurslariga havolalar, va boshqalar.

Digest - qisqa sharhlar, izohlar va maqolalarning asosiy qoidalarini o'z ichiga olgan axborot mahsuloti. Digest muayyan mavzudagi turli manbalardan olingan parchalar to'plamidir.

QR-kodli adabiyotlar- elektron adabiyotlarning QR-kodlarini yaratib, albom shakliga keltirish. Bunday albomlar foydalanuvchilarni jalb etishga xizmat qiladi.

Reklama va targ'ibot ishlari- internetning ulkan imkoniyatlari, unda axborot oqimining tezkorligi, auditoriyaning cheklanmaganligi bizga yangi imkoniyatlarni taqdim etadi. Telegram guruh va kanallari bilan cheklanib qolmay, youtube, instagram, fecebook, tik-tok va boshqa ijtimoiy tarmoqlardan unumli foydalangan holda Axborot-kutubxona markazlari foydalanuvchilarni ko'paytirishga xizmat qiladi.

Kutubxonalarning innovatsiya ko'rgazma faoliyatini tashkil etish!



- ✓ "Sevimli kitobingizni baham ko'ring" : kitob ko'rgazmasi
- ✓ Elektron (virtual) kitob ko'rgazmasi
- ✓ "Tabiat, tinchlik va odamlar bilan birgalikda" nomli virtual FOTO SLAYD
- ✓ "Bibliosmaylik"
- ✓ MOBIL ILOVALAR

- ✓ Kutubxonaga virtual sayohat

Raqamli texnologiyalardan natija:

1. Foydalanuvchilarga zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda muntazam va mustaqil ta'lim olishlari uchun ko'maklashiladi;
2. Axolimizning barcha qatlamlarini hamda butun dunyo talabalarini ham jalb etish uchun qulay;
3. Mavjud ma'lumotlar bazalarini himoya tizimini yuqori darajaga ko'tarilishi;
4. Axborot-kutubxona markazlari ish unumdorligi yuqori darajaga ko'tarilib, yangi bosqichga qadam qo'yadi;
5. Axborot-kutubxona markazlari uchun ichki va tashqi turizm rivojlanadi;
6. Foydalanuvchilar istalgan hududlaridan kutubxonaga masofaviy tashrif buyura oladilar.

Xulosa o'rinda ushbu fikrlarni bildirishim mumkinki, Axborot-kutubxona markazlari taraqqiyoti raqamli texnologiyalarga uzviy bog'liqdir. Foydalanuvchilarga Axborot-kutubxona resurslarini zamonaviy kompyuter va texnik vositalar, telekommunikatsion texnologiyalar orqali sifatli, aniq, kam vaqt ichida tezkor va qulay tarzda yetkazib berish zamon talabidir. Shunday ekan zamonaviy axborot-texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan asrda yangi-yangi innovatsion texnologiyalarni jamiyatimizning turli jabhalari orqali ulkan muvaffaqiyatlarga erishishni oldimizga maqsad qo'yar ekanmiz, bu maqsadlarga erishish yo'lida axborot texnologiyalaridan faqat ezgu maqsadlarda foydalanib, insonlararo eng yangi axborotlar almashinuvini ta'minlash uchun dadil qadamlar tashlashimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kutubxona.uz jurnali
2. <https://www.natlib.uz>
3. <https://namangan.natlib.uz>